

TARIX

1. Rasmda ko'rsatilgan qadimgi yunon faylasufiga tegishli fikrni toping.



- A) «Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmashligi shart»
- B) «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchadir»
- C) «Menga tayanch nuqtasini topib bersangiz, Yerni ag'darib yuboraman!».
- D) «Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak»

2. Qadimgi Xitoy tarixiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- 1) Xitoy hududida ilk davlat Yantszi daryosining o'rta oqimida paydo bo'lgan;
- 2) Butun Shimoliy Xitoy "Chjou" davlati tarkibiga kirgan;
- 3) Milodning boshlarida Xan sulolasiga qarshi «qizil qoshlilar» qo'zg'oloni ko'tarilgan;
- 4) Mil.avv. II ming yillik o'rtalarida yozuv uchun bambuk o'rniga shoyidan foydalanishga o'tildi;
- 5) Dehqonchilik Xitoyda azaldan e'tiborli va faxrli kasb hisoblanib, asosiy dehqonchilik ekinlari arpa va paxta bo'lgan;
- 6) "Zafaryor" – imperiyaning oliy hukmdorlari bilan ajralib chiqqan davlatlar hukmdorlari o'rtasida boshlangan urushlar ikki yuz yildan uzoqroq davom etdi

- A) 2, 3, 6
- B) 1, 4, 5
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4, 6

3. Quyidagilardan Abbosiylar (a) va Somoniylar (b) tomonidan Xurosonga noib etib tayinlangan shaxslarni belgilang.

- 1) Tohir ibn Husayn; 2) Rofe ibn Lays;
- 3) Sobuqtegin; 4) Ibrohim Bo'ritegin

- A) a - 1, b - 3
- B) a - 2, b - 4
- C) a - 2, b - 3
- D) a - 1, b - 4

4. Quyidagi hukmdorlar va ular bilan bir davrda yashagan shaxslarni moslashtiring.

- 1) Saljuqiylar hukmdori Malikshoh;
- 2) Xorazmshoh Alovuddin Muhammad;
- 3) xalifa Ma`mun; a) Sobuqtegin;
- b) Anushtegin; c) Temur Malik; d) Tohir ibn Husayn

- A) 1 - b, 2 - c, 3 - d
- B) 1 - b, 2 - c, 3 - a
- C) 1 - c, 2 - b, 3 - d
- D) 1 - c, 2 - b, 3 - a

5. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishining birinchi bosqichi quyidagi qaysi imperator davrida boshlangan?

- A) Nikolay I
- B) Aleksandr II
- C) Nikolay II
- D) Aleksandr III

6. Quyidagi qo'zg'olonlardan qaysilari Arab xalifaligiga qarshi ko'tarilgan?

- 1) "Sariq ro'mollilar"; 2) "Qizil ko'ylaklilar"; 3) "Qizil qoshlilar"; 4) "Oq kiyimlilar"

- A) 2, 4
- B) 1, 3
- C) 1, 4
- D) 2, 3

7. Quyidagi german qabilalaridan qaysi biri o'rta asrlarda yulduzcha bilan ko'rsatilgan hududda o'z davlatini tuzgan?



- A) ostgotlar
B) vestgotlar
C) sakslar
D) vandallar

8. Quyidagilardan XIX asrda barham topgan (a) va tashkil etilgan (b) imperiyalarni belgilang.

- 1) Vizantiya imperiyasi; 2) Muqaddas Rim imperiyasi; 3) Avstriya-Vengriya imperiyasi; 4) Rossiya imperiyasi

- A) a - 2, b - 3
B) a - 2, b - 4
C) a - 1, b - 3
D) a - 1, b - 4

9. Quyidagi voqealardan qaysi birlari XIX asr oxirida Rossiya tarixida bo'lib o'tgan?

- 1) "Mehnatni ozod qilish" guruhi tuzildi;
2) "Yer-suv ligasi" nomli ommaviy tashkilot tuzildi;
3) "Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi" tuzildi;
4) "Tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan musht" deb atalgan yashirin tashkilot tuzildi

- A) 1, 3
B) 2, 4
C) 1, 4
D) 2, 3

10. Quyidagi jadvalda harflar bilan belgilangan kataklar o'rniga mos keluvchi ma'lumotlarni qoying.

Asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
VIII asr	Sug'd ixshidi G'urak va Panjkent hokimi Divashtich boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi.	a
b	c	Azenkur jangi bo'lib o'tdi.
XVII asr	d	Germaniya knyazliklarining birlashgan qo'shini Vena ostonalarida usmonli turklar qo'shinini tormor keltirdi.

- 1) Iroqning Kufa shahrida arablarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi; 2) Silla qirolligining oltin davri boshlandi; 3) Buxoroda hokimiyat tepasiga mang'itlar sulolasi keldi; 4) XIV asr; 5) XV asr; 6) Ulug'bek va Shayx Nuriddin boshchiligidagi isyonkor ittifoqchilar o'rtasida jang bo'lib o'tdi; 7) Buxoro xoni Nodir Muhammad va Shoh Jahonning o'g'illari o'rtasida Maymana yo'lida jang bo'lib o'tdi; 8) Xiva xonligi tashkil topdi

- A) a - 2, b - 5, c - 6, d - 7
B) a - 1, b - 5, c - 8, d - 7
C) a - 2, b - 4, c - 6, d - 3
D) a - 1, b - 4, c - 8, d - 3

Tarix fanidan test topshiriqlarini yechish bo'yicha abituriyentlar uchun ayrim tavsiyalar

Tarix fanidan jadvalli test topshiriqlarini yechishda abituriyentlar e'tibor qaratishi kerak bo'lgan jihatlar:

3-topshiriq

Quyidagilardan Abbosiylar(a) va Somoniylar(b) tomonidan Xurosonga noib etib tayinlangan shaxslarni belgilang.

- 1) Tohir ibn Husayn; 2) Rofe ibn Lays; 3) Sobuqtegin; 4) Ibrohim Bo'ritegin
 A) a-1, b-3 B) a-2, b-4 C) a-2, b-3 D) a-1, b-4

Bu test topshirig'i ikkinchi murakkablikdagi savol hisoblanadi.

821-yilda Xalifa Ma'mun hokimiyatni qo'lga kiritishida bergan yordami uchun Tohir ibn Husaynni Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlaydi(750-1258-yillarda Arab xalifaligida Abbosiylar hukmronlik qilgan), Somoniy Nuh ibn Mansur G'aznadagi noibi Sobuqteginni yigirma ming kishilik qo'shin bilan Movarounnahrqa yetib kelib, qoraxoniylarga qarshi kurashda yordam bergani uchun Xuroson noibi etib tayinlaydi(manba; 7-sinf O'zbekiston tarixi. 43-56-bet);

7-topshiriq

Quyidagi german qabilalaridan qaysi biri o'rta asrlarda yulduzcha bilan ko'rsatilgan hududda o'z davlatini tuzgan?

- A) ostgotlar B) vestgotlar C) sakslar D) vandallar

Bu xaritali test topshirig'i ikkinchi murakkablikdagi savol hisoblanadi. Xarita bilan bog'liq bo'lgan test topshirig'i abituriyentlarning nazariy bilimlarini amalda qo'llay olishlarini tekshiradi. Ma'lumki, Xalqlarning Buyuk ko'chishlari davrida german qabilalari turli hududlarda o'z davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan. Test topshirig'ida xaritada yulduzcha bilan belgilangan hududda (Italiya) o'z davlatini tuzgan qabila so'ralgan bo'lib, bu topshiriqning javobi – Ostgotlar(manba; 7-sinf Jahon tarixi. 11-12-betlar).

To'g'ri javob: **A**

10-topshiriq

Quyidagi jadvalda harflar bilan belgilangan kataklar o'rniga mos keluvchi ma'lumotlarni qoying.

t/r	Asr	O'zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
1	VIII asr	Sug'd ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi.	a
2	b	c	Azenkur jangi bo'lib o'tdi.
3	XVII asr	d	Germaniya knyazliklarining birlashgan qo'shini Vena ostonalarida usmonli turklar

			qo‘shinini tor-mor keltirdi.
--	--	--	------------------------------

1) Iroqning Kufa shahrida arablarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi; 2) Silla qirolligining oltin davri boshlandi; 3) Buxoroda hokimiyat tepasiga mang‘itlar sulolasi keldi; 4) XIV asr; 5) XV asr; 6) Ulug‘bek va Shayx Nuriddin boshchiligidagi isyonkor ittifoqchilar o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi; 7) Buxoro xoni Nodir Muhammad va Shoh Jahonning o‘g‘illari o‘rtasida Maymana yo‘lida jang bo‘lib o‘tdi; 8) Xiva xonligi tashkil topdi

- A) a-2, b-5, c-6, d-7
- B) a-1, b-5, c-8, d-7
- C) a-2, b-4, c-6, d-3
- D) a-1, b-4, c-8, d-3

Bu jadvalli test topshirig‘i uchinchi murakkablikdagi savol hisoblanadi. Test topshirig‘i orqali abituriyentlarning asr va yil hisobini bilish, tarixiy voqea va hodisalarning davomiyligini, ularning qaysi davrga oidligini ayta olish, eramizdan oldingi asrlarni hisoblay olishi tekshiriladi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun O‘zbekiston va Jahon tarixidagi voqealarni bo‘lib o‘tgan davri bilan moslash va jadvalda harflar bilan belgilangan (a, b, c, d) kataklarga mos keluvchi ma‘lumotlarni qo‘yish talab etiladi.

Jadvalda **a** – harfi bilan belgilangan katakda VIII asrda jahon tarixida sodir bo‘lgan voqea so‘ralgan bo‘lib, bu - 2) Silla qirolligining oltin davri boshlandi (manba; 7-sinf Jahon tarixi. 139-bet);

b va **c** – harflari bilan belgilangan kataklarda XV asrda O‘zbekiston tarixida sodir bo‘lgan voqea so‘ralgan bo‘lib(Azenkur jangi bo‘lib o‘tdi 1415-yil-XV asr), bu - 6) Ulug‘bek va Shayx Nuriddin boshchiligidagi isyonkor ittifoqchilar o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi (manba; 7-sinf O‘zbekiston tarixi. 134-bet);

d – harfi bilan belgilangan katakda XVII asrda O‘zbekiston tarixida sodir bo‘lgan voqea so‘ralgan bo‘lib, bu-7) Buxoro xoni Nodir Muhammad va Shoh Jahonning o‘g‘illari o‘rtasida Maymana yo‘lida jang bo‘lib o‘tdi; (manba; 8-sinf O‘zbekiston tarixi. 38-bet);

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ma‘lumotlarni moslashtiramiz; a-2, b-5, c-6, d-7
To‘g‘ri javob: **A**

Test topshiriqlari javoblari

№	Javob
1	A
2	A
3	A
4	A
5	A

№	Javob
6	A
7	A
8	A
9	A
10	A